O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

KOLLABORATIV TA’LIMDA LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI



BUXORO – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

KOLLABORATIV TA’LIMDA LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2025-yil 7-noyabr

BUXORO – 2025

– asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni farqlash;

– grafik va og‘zaki ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligi;

– o‘qilgan matnni sharhlash (tarjima, o‘qilgan narsa haqida fikr yuritish, o‘quvchi va matn, uning muallifi o‘rtasidagi o‘ziga xos dialog);

– matnning til va strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilish;

– matn ta’sirida sodir bo‘lgan o‘z qarashlarida (munosabatlar) o‘zgarishlarni aks etuvchi tahlil qilish;

– o‘z nuqtayi nazarini fikrlar bilan solishtirish.

Tadqiqotlardan o‘qish savodxonligini tavsiflashda o‘quvchilarning quyidagi harakatlari aniqlandi:

1) matnda aniq shaklda keltirilgan ma’lumotlarni toping;

2) ushbu ma’lumotlar asosida soddaroq xulosalar chiqarish;

3) matnning alohida xabarlarini sharhlash va umumlashtirish;

4) butun xabarning mazmuni, tili va shaklini baholash va uning alohida elementlari.

PIRLS - matnni o‘qish va tushunish sifatini xalqaro o‘rganish dasturi ta’lim oluvchilarning to‘rtinchi sinfgacha bo‘lgan bilimlarini sinab ko‘radi, chunki bu davr bolalarning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib hisoblanadigan boshlang‘ich sinfning bitiruv o‘quv yili bo‘lib, so‘ngra o‘quvchilar yuqori sinflarda o‘qishlarini davom ettirishlari kerak, bu esa keyingi ta’lim olishlarining vositasiga aylanadi.

KOLLABORATIV TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION SHAKLLARI

Aslanova Nozima Xakimovna
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Rezyume: *O‘qish savodxonligi — nafaqat ravon o‘qish, balki matnni tushunish, tahlil qilish va fikr almashish qobiliyati hisoblanadi. Kollaborativ va innovatsion shakllar bu ko‘nikmalarni tezroq va chuqurroq rivojlantiradi. Shuningdek, global baholash (PIRLS) talablariga mos keluvchi kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Maqolada kollaborativ muhitda o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.*

Tayanch tushunchalar: *kollaboratsiya, o‘quvchi, boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, yondashuv, texnologiya, baholash, differensial.*

Резюме: *Грамотность чтения — это не только беглое чтение, но и способность понимать текст, анализировать его и обмениваться мнением. Коллаборативные и*

Ta’lim jarayonida innovatsion kollaborativ shakllar sirasiga kiruvchi **“think-pair-share”** (o‘ylash — juftlikda muhokama — namoyish etish) texnikasida o‘quvchi avval o‘z fikrini partadoshiga aytadi, keyin juftlikda fikr almashadilar, so‘ng jamoaga aytadilar.

Misol uchun: Berilgan matn asosida “Qanday?”, “Qanaqa?” so‘rog‘iga javob beruvchi sifat-so‘z turkumiga oid 2 ta so‘zdan iborat jumla tuzish — 1 daqiqa o‘ylash, 2 daqiqa juftlikda muhokama, 3 daqiqa sinf jamoasiga taqdimot qilish.

Bu texnikada kollaborativ ta’limning juftlikda va jamoada ishlash shakllari amalga oshiriladi.

“Jigsaw” (Mozaika) usuli ham kollaborativ shaklda ishlash uchun qulay usul hisoblanadi.

Bunda: Matn bo‘laklarga bo‘linadi, har bir guruh o‘ziga tegishli matn qismini o‘rganib, so‘ng bir a’zosini“ekspert” sifatida boshqa guruhga yuboradi va ekspertlar tomonidan umumiy xulosalar yig‘iladi.

Misol: Badiiy matnni 4 qismga bo‘lib, bir guruh matn qahramonlari, boshqa guruhlar voqea, muammo va xulosalar bo‘yicha ishlaydi. Har bir matn xulosasi asosida bittadan maqol aytish o‘quvchilarda matn turlari, badiiy asar janrlari haqida ma’lumot beradi.

“Reciprocal teaching” (o‘zaro o‘qitish) metodida o‘quvchilarga o‘zaro savol-javob, xulosalash, bashorat qilish va tushuntirish funksiyalarini bajarish vazifasi beriladi. Bunda matnni qismlarga bo‘lib mustaqil o‘qish, har qismga mos topshiriq tayyorlash, testlar tuzish, savol tuzish, qahramonlarni ajratib olish, rasm chizish kabi vazifalar tayyorlanadi. Bu kollaborativ usulda o‘quvchilar matn ustida samarali ishlaydilar. Matn haqida to‘liq tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Peer tutoring (tengdoshlar orasida hamkorlik) — bu ta’lim usulida tajribaliroq yoki yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar o‘z tengdoshlari yoki kichikroq yoshdagi o‘quvchilarga individual yoki kichik guruhlarda ta’limiy yordam berishadi.

Mixed-ability pairs (turli tayyorgarlik darajasidagi juftliklar) —bunda bir o‘quvchi ma’lum fan bo‘yicha yuqori bilim darajasiga ega, ikkinchisi esa pastroq darajada bo‘lib, birinchisi ikkinchisiga o‘rgatishi talab etiladi.

Project-based reading (Loyihaviy o‘qish) matn asosida kichik loyiha tayyorlash vazifasi beriladi. Bu loyiha rolli o‘yin, plakatga chizish, kichik kollajli kitobcha tayyorlash yoki broshyura tayyorlash shaklida bo‘lsa maqsadga muvofiq.

Misol: “Mening sevimli qahramonim” loyihasida o‘quvchilar guruhlarga bo‘lib, qahramonni aks ettiradilar, uning xatti-harakatlarini sahnalashtiradilar yoki uning xususiyatlarini aks ettiruvchi plakat tayyorlaydilar.

O‘yin asosidagi vazifalar berish – bunda o‘qish mashqlarini o‘yin elementlari (bonuslar, darajalar, sovg‘alar) bilan boyitish maqsadi turadi. Misol uchun: So‘z va jumla yaratuvchi “vazifalar” (qandaydir so‘zni topish, she’riy yoki maqolli xulosalar qilish) va boshqalar.

“Blended” kollaborativ o‘qish usuli - sinf ichidagi guruhiy ishlar va onlayn hamkorlik (forum, Padlet, koferensiya) kombinatsiyasi asosida tashkil etiladi. Misol uchun: Uyga vazifa — qisqa metrajli videoni tomosha qilib, taassurotlar asosida guruh muhokamasini tashkil etish lozim.

Kollaborativ yondashuv asosida tashkil etiladigan darslarda differentsiatsiya va inkluzivlik muhim o‘rin tutadi. Bunda vazifalar modulli tarzda, ya’ni bir xil topshiriqni 3 (oson, o‘rta, qiyin) darajaga bo‘lib berish, visual vositalar va multisensor yondashuv: rasmlar, kartochkalar, harakatli mashqlar asosida tashkil etish, qo‘shimcha vaqt yoki soddalashtirilgan matnlar tanlash asosida berilishi lozim.

Bunda o‘zbek adabiy tilning madaniy jihatlarni hisobga olish, baholash (formativ va summativ)ning qulay variantlarini tanlash, ya’ni formativ (kuzatuv varag‘ini yuritish, peer-assessment (bir birini baholash), matn yuzasidan qisqa testlar (3–5 savol) asosida baholash muhim ahamiyatga ega.

Summativ, ya’ni portfoliolar (kundalik yozuvlar, audio/video materiallar), qiyosiy nazorat ishlari, ko‘rsatkichlar asosida to‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar soni, matnni tushunish darajasi (savol-javob), o‘zaro yordam ko‘nikmalari baholanadi.

Bunda fasilitator sifatida o‘qituvchining roli yo‘l-yo‘riq berish, guruh ishini kuzatish, baholash, vazifalarni oldindan aniq taqsimlash va vaqtni boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar rivoji uchun guruhlarda dinamikani aniqlash (har haftadagi o‘zgartirish) asosida amalga oshiriladi.

Dars jarayonida ba’zi o‘quvchilar passiv bo‘lishi mumkin. Shuning uchun aniq rollar: vaqt nazoratchisi, qayd etib boruvchi, taqdimotchi kabilar belgilanishi lozim.

Kollaborativ ta’lim muhitida innovatsion shakllarni tatbiq etish boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarini nafaqat texnologik jihatdan, balki o‘quvchilar uchun mavzuni keng tushunish, ijtimoiy va hissiy rivojlanishni, hayotiy ko‘nikmalarni egallashni sezilarli darajada yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Jeanne Chall "Stages of Reading Development", Москва, “Просвещение”, 2016.
2. Marie Clay "Reading Recovery", Dallas, 2008.
3. Aslanova N.X. Boshlang‘ich sinflarda matnni o‘qish va uni tushunish darajasini shakllantirish. Monografiya. Buxoro. “Durdona”. 2023.
4. Aslanova N.X. Pedagogik kvalimetriya. Darslik. Buxoro. “Durdona”. 2024.

4K-FAOLLIKLARI UCHUN FAZOVIY TASAVVUR RUBRIKALARI VA ANALITIK PANEL

Kasimov Fayzullo Muxammadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
p.f.n.,professor,
Qurbonova Adiba Nuriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Maqola 4K bilan integratsiyalangan fazoviy tasavvur baholashini rubrika va analitik panel asosida tasvirlaydi; ko‘p manbali dalillar portfoliyoga ulanib, vaznli metrikalar bitta indeksni hosil qiladi.*

Kalit so‘zlar. *4K kompetensiyalari; fazoviy tasavvur; rubrika; ko‘p manbali baholash; analitik panel; GeoGebra 3D; AR/VR; portfoliyo.*

Аннотация. *Статья предлагает оценку пространственного мышления, интегрированную с компетенциями 4C, на основе рубрик и аналитической панели; многоисточечные данные формируют портфолио, а взвешенные метрики дают единый индекс.*

Ключевые слова: *Компетенции 4C; пространственное мышление; рубрика; многоисточечное оценивание; аналитическая панель; GeoGebra 3D; AR/VR; портфолио.*

Annotation. *The paper presents 4C-integrated spatial reasoning assessment via rubrics and an analytics dashboard; multi-source evidence feeds a portfolio, and weighted metrics produce a single index.*

MUNDARIJA

I SHO‘BA. KOLLOBRATIV MUHITDA O‘QUVCHILARNING LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xamidov Akmal Amrulloyevich	Ta’limda kollaboratsiya – muvaffaqiyat garovi	4
Sarvinoz Daniyarova	Kollaborativ muhitda o‘quvchilarning loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish usullari	6
Narziyeva Mastura Sunnatovna	Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy yondashuvga asoslangan fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish	12
Abduraimov Sherali No‘monjonovich	Tarbiya fanini o‘qitishda jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari	16
Orzigul Usmanaliyeva	Kollaborativ ta’limda loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari	20
Aslanov Ulug‘bek Shamsiddinovich	Matematika darslarida kollaboratsiya texnologiyasidan foydalanish	24
Ishanova Barno Baxadirovna	Ta’lim muassasasini boshqarishda kollaborativ yondoshuvning tamoyillari	26
Egamova Gulnoza Istam qizi	Ekologik tarbiya va ta’limda kollaboratsiya: hamkorlik mexanizmlari, tajribalar va rivojlanish yo‘nalishlari	30
Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna	Pedagoglarning o‘zgarishlarga moslachuvchanligi psixologiyasi	36
Rajabova Kimyoxon Farmonovna	PIRLS – 2026: tayyorgarlik – axborot matnining o‘ziga xos xususiyatlari	44
Aslanova Nozima Xakimovna	Kollaborativ ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishning innovatsion shakllari	49
Kasimov Fayzullo Muxammadovich Qurbonova Adiba Nuriddinovna	4K-faolliklari uchun fazoviy tasavvur rubrikalari va analitik panel	53
Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna	Boshlang‘ich sinfl o‘quvchilarida kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish usullari	55
Norkulova Dilorom Oybekovna	Modulli ta’lim texnologiyasi va uni boshlang‘ich ta’limda qo‘llash	59
Boltayeva Zilola Safayevna	Individual yondashuv ta’lim jarayonining barcha bo‘g‘inlarida muhim pedagogik omil sifatida	67
Nazarova Mavluda Uktamovna	Boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish usullari	71